

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: YAPON TILIDA O`ZLASHMA LEKSEMA BILAN YASALGAN
IDIOMATIK BIRLIKLAR**

Bajardi: “Yapon filologiyasi” ta’lim
yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Nadjimxodjaev Ma`rufxodja Sunnatovich_____

Ilmiy rahbar: “Yapon filologiyasi”
kafedrasi o`qituvchisi
Ishimura Ikumi _____

TOSHKENT – 2012

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo tillari”
fakulteti dekani f.f.n., Nosirova S. A.

“Yapon filologiyasi” kafedrasi mudiri
f.f.n., dots. Kim N.D.

“ _____ ” _____ 2012-yil

“ _____ ” _____ 2012-yil

MUNDARIJA

KIRISH	4
ASOSIY QISM	9
1-Bob. Yapon va o'zbek tilidagi idiomatik birliklarning o'xshash va farqli jihatlari	9
1.1. Idiomalarga oid izoh va tushunchalar.....	9
1.2. Idiomatik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari	15
1.3. O'zbek tiliga oid iboralarning ma'no xususiyatlari	21
2-Bob. Yapon tilida o'zlashma leksemalar bilan yasalgan idiomalarning ma'no xususiyatlari	25
2.1.Yapon tilidagi o'zlashma so'zlar	25
2.2.O'zlashma idiomatik birliklarning qo'llanilishi.....	28
XULOSA VA TAKLIFLAR	34
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	37
ILOVA	39

KIRISH

“Mamlakatimizda hayotning barcha sohalarida amalgam oshiriliyotgan islohatlarning taqdirida, odamlar dunyoqarashning o'zgarishida, buyuk davlat barpo etishdek oliyjanob orzuimizning ro'yobga chiqishda zamon talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi¹

I.A.Karimov

Mustaqilligimiz tobora mustahkamlashib, o'zining ijobiy samaralarini bera boshlagan bugungi kunda xalqimiz oldida hayotning moddiy va ma'naviy asoslaridan kelib chiqadigan yangidan-yangi ulkan vazifalar turibdiki, ularni amalga oshirishda adabiyot va san'at, umuman ma'naviyatning ahamiyati shubhasiz, benihoya kattadir.

Milliy madaniyatimizni boyishi ham turli xalqlarning ma'naviy boyligi va ma'naviy dunyoqarashlari bilan o'zaro bog'liq ravishda rivojlanadi. Xususan, Sharq xalqlari adabiyotini tadqiq qilish va o'rganish, turli xalqlarning ma'naviy boyligi va ma'naviy dunyoqarashiga qo'shilishi asosida milliy madaniyatni boyishiga xizmat qiladi.

Zero yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov aytganlaridek: “Ilmga, ijodga, kashf etishga intilish – bu oliy janob intilishdir... Chunki mamlakatning iqtisodiy qudratini, uning ertangi kunini, boringki, taqdirini ham pivorard natijada aql-zakovat, ma'naviyat hal qiladi”². Xalq va millatning ma'naviy, ruhiy va

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Havfsizlikka tahdid va barqarorlik shartlari T.:Sharq, 1997, 142-bet

² I.A.Karimov “Bunyodkorlik yo'lidan”. O'zbekiston, Toshkent., 1996, 4-88-betlar

axloqiy qadriyatlarini shakllantiruvchi hamda ta'minlovchi asoslardan biri esa badiiy adabiyotdir. Millat ma'naviyatini bir-biri bilan uzviy aloqadorligi va aks ta'sir jarayonlari uzoq tarixiy an'anaga ega. Boshqa xalqlar bilan do'stona munosabat qilish va ilg'or tomonlarini o'rganish o'zbek xalqi ma'naviyatiga xos bo'lgan xususiyatdir.

Mamlakatimiz ilmiy salohiyatining ildizlari nihoyatda chuqur va baquvvatdir. Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Mubolag'asiz aytish mumkinki, fanimiz, aql-zakovat salohiyatimizning noyob va go'zal binosiga bundan ko'p asrlar muqaddam poydevor solingan edi. Mamlakatimiz fani juda qadim zamonlardan yuksala boshlaganini, uning chuqur va qudratli ildizlari borligini faxrlanib ayta olamiz. U asrlar davomida o'zbek millatiga, butun insoniyatga tabiat sirlarini o'rganishda, tibbiyot, falsafa, huquqshunoslik, ilohiyot, adabiyotshunoslik va tilshunoslikda ishonchli xizmat qilib kelmoqda"³.

Mavzuning dolzarbligi. Ushbu bitiruv malakaviy ishda o'zlashma leksema orqali yasalgan idiomatik birliklar ko'rib chiqiladi.

Hozirgi kungacha idiomatik birlik deganda ikki va undan ortiq so'zning aynan bir ma'noda ishlatilishi yoki bir necha so'zning aynan bir ma'noda ma'nosi bo'lishi.⁴ Idiomalar ma'lum bir millatning so'zlarni qo'llash san'ati bo'lib, buni to'g'ri qo'llay olish bilan ona tilisi yapon tili bo'lmish yaponlar bilan muloqot qilish jarayoni yanada go'zal va tabiiy bo'ladi. Shuning uchun yapon tilini o'rganish jarayonida yapon idiomalarini o'rganish dolzarb deb hisoblaymiz. Ammo yapon tilidagi idiomalarni o'rganish jarayonida juda qiyin sanaladigan odamning tana qismlaridan paydo bo'lgan idiomalar, qiyin tarkib ega ierogliflar bilan yasaladigan ideomalar mavjuddirki, shu sababli ham aynan bir gapni tarjima qilayotganda gapni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilib, bir butun maqolaning mavzusi o'zgarib ketishi singari mummoli jihatlaridan yana biri bu bizning bitiruv

³ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: "O'zbekiston", 1997. b259

⁴ 『学研国語大辞線』 ("Ilmiy izohli kata lug'at") 1978

malakaviy ishimizning mavzusi bo'lmish “Yapon tiliga oid o'zlashma leksemalardan yasalgan ideomatik birliklar” dir.

Bu yerda eng katta muammo sifatida yapon tili ideomalari bo'lsada, chet tilidan o'zlashgan so'zlar qo'llaniladi. Shu bilan birga yapon tilidagi gapda katakana⁵ qo'llanilsa, ushbu gapni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinishi odatiy hol hisoblanib, bu xatolikni qilmaslik uchun qanday choralar ko'rish kerak .

Shu yerda ikki misolni tanladik:

- バイクのエンジンがかからない。

Baiku no enjin ga kakaranai

Mototsiklning motori o't olmayapti.

- 試合が近くなって、練習にエンジンがかかっていた。

Shiai ga chikaku natte, renshuu ni enjin ga kakatte kita.

Musobaqa kuni yaqinlashib, sportchilarning mashqlarga nisbatan faollik kuchaydi.

Birinchi misolda keltirilgan gapda “motorning o't olishi” nazarda tutilgan bo'lsa, ikkinchi misolda esa, エンジンがかかる so'zi ideomatik birlik sifatida qo'llanilib, gapda “faollik kuchaydi”, “kuch paydo bo'ldi” ma'nosiga ega bo'lib, shunga qarab har bir gapning ma'nosi o'ziga xos ravishda o'zgaradi.

Malakaviy ishning maqsadi. Biz o'z ilmiy malakaviy ishimizda yapon tilshunosligida o'zlashma leksemalardan yasalgan idiomatik birliklar hususidagi tadqiqotga oid muommolarni yechimini topish uchun ushbu tadqiqotimizda ideomatik iboralarga oid adabiyotlarni topish, o'zlashma leksema orqali yasalgan idiomatik birliklarni topish bilan bir qatorda har bir ideomalar ustida chuqur mulohaza qilishni tadqiq etishga bag'ishlanad. Maqsaddan kelib chiqqan **vazifalar** quyidagilardan iborat:

⁵ Chet tilidan kirib kelgan so'zlar uchun qo'llaniladiga alifbo

- Yapon tilida va o'zbek tilida idiomatik birliklarga ilmiy asosda izoh berish hamda ikki til orasidagi o'xshash va noo'xshash jihatlarini tadqiq qilish;
- Idiomatik birliklarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- O'zbek tilida oid iboralarning ma'no xususiyatlarini tahlil qilish;
- Yapon tilidagi o'zlashma so'zlarning kelib chiqishi, qo'llanilishini o'rganish;
- O'zlashma idiomatik birliklarning qo'llanilishini misollar ko'rinishida ilmiy tahlil qilib o'rganish;

Ushbu bitiruv malakaviy ishimizning mavzusi kelajakda yapon tilshunosligi va yapon tilini o'rganuvchilar uchun kerakli bilimlar deb hisoblaymiz va shuni anglagan holda ushbu tadqiqot mavzusini hozirgi kundagi eng dolzarb va bebaho bilimlarni bera oladi deb o'ylaymiz.

Ushbu tadqiqotning maqsadi qo'yilgan masalalarni yoritish va bilimlarimiz doirasini kengaytirishdir.

Mavzuning o'rganilish darajasi: Shu vaqtga qadar yapon tilshunosligida idiomalariga doir ilmiy va tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, odam tanasiga oid ideomalar haqidagi ilmiy-tadqiqot ishlar juda ko'p uchraydi. Ammo o'zlashma leksemalardan yasalgan ideomatik birliklar to'g'risidagi ilmiy ishlarning yetishmovchiligi ko'rinadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, mazkur ish keyingi tadqiqotlar uchun asos yoki qo'shimcha material bo'lishi mumkin, shuningdek u tilshunos talabalar, ayniqsa, sharq madaniyati bo'yicha mutaxassislar va yapon tilshunosligi bilan qiziquvchi barcha insonlar uchun qo'shimcha qo'llanma vazifasini o'taydi.

Ishning xulosa qismida o'tkazilgan tadqiqot yakunlari ko'rib chiqiladi va umumiy xulosalar tavsiflanadi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishida o'zbek, o'zbek tillaridagi materiallar va rus tillardagi tilshunos olimlarning asarlaridan tashqari, yapon olimlarining ushbu

mavzudagi yapon tilidagi adabiyotlardan o'zbek tiliga tarjima qilgan holda foydalanildi.

Shuningdek ro'yhati malaka ishiga ilova qilingan internet saytlarning materiallaridan va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanildi.

Ishning tuzilishi: Kirish, 2 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovadan iborat. Ishning kirish qismida umumiy ma'lumot, mavzuning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, tadqiqot metodlari va bitiruv malakaviy ishimizni tuzilishi bilan tanishtiriladi. Shuningdek I-va II- boblarda mavzuga doir muammolarning yechimi haqida so'z yuritiladi. Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda tilshunoslikning tavsifiy, tahliliy, umumlashtirish, qiyosiy va albatta tarjima metodlaridan foydalandik.

I-Bobda yapon va o'zbek tilidagi idiomatik birliklarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari ko'rib chiqiladi. Idiomalarga oid izoh va tushunchalar shu bilan birga idiomatik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari, bobning so'nggi qismida o'zbek tiliga oid iboralarning ma'no xususiyatlari o'rganishga bag'ishlanadi.

II-Bobda esa, yapon tilida o'zlashma leksemalar bilan yasalgan idiomalarning ma'no hususiyatlarini o'rganishda, yapon tilidagi o'zlashma so'zlar va o'zlashma idiomatik birliklarning qo'llanilishi haqida so'z boradi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda dastlab har bir tilda mavjud bo'lgan ideomatik birliklarga oid ma'lumotlarni misollar orqali izoh beriladi. So'ngra, yapon tilidagi ideomalarning gramatik tahlili va ilmiyliliga izoh beriladi va yapon tili izohli lug'ati va ideomatik lug'atlardan foydalangan holda yapon jamiyatiga oid bo'lgan kundalik hayotda qo'llaniladigan o'zlashma leksema orqali yasalgan ideomalarning ro'yhati tuziladi. Shu bilan birga ro'yhatdagi idiomalarning ma'nosi, qo'llanilish maydoni, qanday qilib bu ideomalar paydo bo'lganligi to'g'risida ham chuqur tadqiq qilinadi.

ASOSIY QISM

1-Bob. Yapon va o'zbek tilidagi idiomalarining o'xshash va farqli jihatlari

1.1. Idiomalarga oid izoh va tushunchalar

Idiomatik birlikni kundalik hayotimizda juda ham ko'p qo'llaymiz. Har bir davlatda qadimgi davrlardan odamlarning suhbatlari jarayonida qo'llanilib, zanjir tarzida avlodlardan avlodga o'tib boruvchi va shu bilan birga aynan bir davlatning o'ziga hos madaniyati, narsalarga nisbatan bo'lgan qarashlar va fikrlash doirasiga asoslangan holda idiomatik birliklar vujudga keladi. Tilshunoslik dunyosida idiomalar juda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, badiiy asarlar, muloqot jarayonida frazeologik birliklarsiz tasavvur qilish qiyin. Ammo, bunday birliklarni o'rganish jarayonida idiomatik birliklarning ko'pligi va ularning ma'nosini tushunish bo'yicha o'ziga xos qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Bunday iboralarini o'rganish yoki tahlil qilish jarayonida faqatgina gramatik va so'z boyligi orqali iboralarining ma'nosini to'liq tushunib yetish qiyindir. O'rganilayotgan chet tili bo'yicha bilimi kuchli bo'lgan o'quvchi va talabalar uchun ham iboralarining ma'nosini tushunib yetishi oson hisoblanmaydi.

O'zbek tilining boy lingvistik imkoniyatlarini ko'rsatuvchi vositalardan biri frazeologizmlardir. Sh.Rahmatullayev asos solgan o'zbek frazeologizmshunosligi keyingi yillarda katta yutuqlarga erishdi. Turli hajmdagi ilmiy maqolalar, risolalar, nomzodlik dissertatsiyalari bilan bir qatorda A.E.Mamatovning «Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik-frazeologik norma muammolari» (1991), B.Yo'ldoshevning «Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional uslubiy xususiyatlari» (1994), A.Mamatovning «O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari» (2000) nomli doktorlik ishlari muvaffaqiyatli himoya qilindi. Sh.Rahmatullayev tomonidan 1978 yilda yaratilgan «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati» esa hozirgacha muhim qo'llanma sifatida foydalanib kelinmoqda. Ushbu bitiruv malakaviy ishimizning asosiy qismining I bobida idiomatik birliklar to'g'risida umumiy tushuncha ya'ni mavzuga doir izohlar va

tushunchalar ustida izlanib va shunga qadar tilshunoslik olamida dunyoga tanilgan olimlar tomonidan olib borilgan uzoq yillik tadqiqotlar mahsulida sifatida vujudga kelgan iboralarning tasniflarinishi to'g'risida o'z bitiruv malakaviy ish haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida mulohaza qilinadi. Yuqoridagilarni aniqlash maqsadida yapon tilidagi bir necha ilmiy lug'atlar, ilmiy ishlar va maqolalari o'rganib chiqish orqali yapon tilida idiomatik birliklar to'g'risidagi tushunchalar va izohlarning ko'pligi va xilma-xilligi aniqlandi.

Shu qatorda ushbu malakaviy ishda yapon tili tilshunosligiga katta ahamiyat berilgan holda olib borilishini hisobga oladigan bo'lsak, birinchi navbatda yapon tilshunosligida idiomatik birlik to'g'risida qanday tushunchalar borligini aniqlashimiz bosh vazifalardan biriga aylanadi. Ushbu malakaviy ishda idiomalarning yapon tilshunosligida keng tarqalgan tushuncha va izohlarni to'g'ridan-to'g'ri yapon tilidagi manbadan olgan holda o'zbek tiliga tarjima qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Quyidagi izoh va tushunchalarni keltirib o'tamiz:

「二つ以上の語や文節が結合した結果、その続きが、全体として構成要素である個々の語の意味の和とは異なった特定の意味を表すものをさす。」⁶

Ikki so'zdan ortiq so'z yoki qo'shma so'zlarnig birlashishidan hosil bo'lgan, lekin har bir so'zning yakka ma'nosini tahlil qilib paydo bo'lgan mazmun bo'lmay, shundan umumiy ma'no hosil bo'ladigan, ya'ni aynan belgilab qo'yilgan ma'nodan boshqa mazmunni bermaydigan birlikdir.

「いつでも二つ以上の単語が続きに、または、相応じて用いられ、その結合が、全体として、ある固定した表すものをさす。」⁷

⁶ 『日本文法辞典』 1981

⁷ 『国語学大辞線』 1980

Hamma vaqt ikkidan ortiq soʻzning davomi yoki oʻxshash soʻzlarning qoʻllanilishi asosida birlashishi orqali umumiy mazmun jihatidan yagona belgilangan maʼnoni bildiradi.

「慣用句は二語以上の単語が結合して、それ全体である特定の意味を表すのである。」⁸

Idiomatik birliklar ikkidan ortiq soʻzning birlashib va bularning umumiy boʻlgan mazmuni belgilangan holda maʼno beruvchi birlik.

Mazkur ilmiy malakaviy ishda yapon tilshunosligida oʻzlashma leksemalardan yasalgan idiomatik birliklar toʻgʻrisida tadqiqotni olib borish jarayonida yapon tilshunosligidagi “kanyoku” yaʼni ideomalarni oʻrganish boʻyicha bir qator tilshunos olimlar oʻz izlanishlarini olib borganliklari aniqlandi. Oʻrganilgan adabiyotlar asosida ideomalarni tasniflashi haqida soʻz yuritib, aynan oʻzlashma leksemalardan yasalgan idiomatik birliklarning qaysi guruh ideomalari ekanligini mulohaza qilishimiz zarur deb hisoblaniladi.

Mazkur bobda shu bilan birga oʻzbek va rus olimlari tomonidan ilgari surilgan ideomalar haqidagi tushuncha va izohlar, tasniflanishi haqida yozilgan ilmiy asarlar, tadqiqotlar va maqolalardan foydalangan holda tadqiqot davomida yapon tilshunosligi hamda oʻzbek tilshunoslarining aynan bir mavzuga doir boʻlgan qarashlari oʻrtasidagi oʻxshash va farqli jihatlari ustida ham mulohaza yuritish kerak deb hisoblaymiz.

Shuning uchun oʻzbek tilidagi mavzuga doir ilmiy adabiyotlardan maʼlumotlarni ustida izlanish orqali ikki tildagi frazeologiya toʻgʻrisidagi tushuncha va izohlar haqida mulohaza qilamiz.

Ikki va undan ortiq soʻzdan tarkib topgan va yaxlit bir koʻchma maʼno ifodalaydigan, taʼsirchanlikka ega boʻlgan til birligi frazeologik birlik deyiladi: *qoʻy ogʻzidan choʻp olmagan (yuvosh), kapalagi uchib ketdi (choʻchidi), ogʻzing qani desa qulogʻini koʻrsatadi (lapashang) va h.*

⁸ 『小学館大辞泉』 2010

Barqaror birikmalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi paremiologiya (lotincha parema "barqaror", "logos" ta'limot), barqaror birikmalar lug'atini tuzish muammolarini o'rganuvchi bo'lim esa paremiografiya sanaladi. Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko'ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma'no butunligi nuqtai nazaridan turlichadir.

Shunga ko'ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1) *Frazeologizmlar.*

2) *Maqol va matallar.*

3) *Aforizmlar.*

Barqaror birikmalarning bir guruhi tarkibidagi so'zlar ma'no jihatdan uyg'unlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi va ko'pincha mazmunan bir leksemaga teng keladi va ko'chma ma'noda ishlatiladi. Masalan, qulog'i ding bo'lmoq – hushyor bo'lmoq, qovog'i osilmoq – xafa bo'lmoq, og'zining tanobi qochmoq – quvonmoq kabi.

Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalarga frazeologizmlar deyiladi. Frazeologizmlar gap tarkibida uning bir bo'lagi vazifasida keladi. Frazeologizmni tashkil etgan so'zlar frazeologizmning faqat ichki uzvlari sanaladi. Gapning boshqa bo'laklari bilan yaxlit, bir butun holda munosabatga kirishadi.

Frazeologik birlik sifatida ibora atamasi ham ishlatiladi. Ikki va undan ortiq so'zdan tarkib topgan va yaxlit bir ko'chma ma'no ifodalaydigan, ta'sirchanlikka ega bo'lgan til birligi ibora (frazeologik birlik) deyiladi: qo'y og'zidan cho'p olmagan (yuvosh), kapalagi uchib ketdi (cho'chidi), og'zing qani desa qulog'ini ko'rsatadi (lapashang) va h.

Iboralar ahamiyati va qo'llanishi jihatidan, odatda, so'zga teng keladi. Iboralar ko'proq so'zlashuv nutqida va badiiy asarlarda ishlatiladi. Ulardan unumli

foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Til fanining iboralarni o'rganadigan bo'limi frazeologiya deb ataladi⁹.

Iboralar o'rtasida ham o'zaro omonimlik, sinonimlik, antonimlik va paronimlik bo'lishi mumkin: Omonim iboralar: dam bermoq (yel haydamoq) – dam bermoq (hordiq bermoq); Ko'z yummoq (o'lmoq) – ko'z yummoq (e'tibor bermaslik); boshiga ko'tarmoq (e'zozlamoq) – boshiga ko'tarmoq (to'polon qilmoq); sinonim iboralar: tegirmonga tushsa butun chiqadi – suvdan quruq chiqadi; antonim iboralar: yerga urmoq – ko'kka ko'tarmoq; paronim iboralar: yuragi tars yorilib ketayozdi (sabr-chidami tugamoq) – yuragi qoq yorilayozdi (sevinganidan qattiq hayajonlanmoq).

Frazeologizmlar nutqning ta'sirchan va bo'yoqdor bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababdan frazeologizmlarda uslubiy-funksional xossalar leksik birliklarga qaraganda ham keng: Ko'zining paxtasi chiqmoq, yuragi qon bo'lmoq, ichini it tirnamoq kabi frazeologizmlarda uslubiy bo'yoq kuchli. Ularni ikki yo'nalishga bo'lish mumkin:

ijobiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan frazeologizmlar: boshini silamoq, tillaridan bol tommoq, ko'zi yashnamoq;

salbiy: uyiga o't yoqmoq, to'ng'iz qopmoq, yer tishlamoq.

Adabiy normaga taalluqli bo'lgan to'rt asosiy mezon va kategoriya: barqarorlik, kodifikasiyalashganlik, dinamiklik va variantdorlik xususiyatlari frazeologik normaga ham bevosita tegishlidir. Demak, xulosa qilish mumkinki, bu alohida-alohida to'rt mezon va kategoriya o'zaro dialektik bog'liq bo'lib, yaxlit umumiylikni, ya'ni adabiy me'yorni tashkil qiladi.

Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar maqollar sanaladi. Masalan, Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi. Bolta tushguncha, to'nka dam oladi. Maqollar xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi natijasida maydonga keladi. Ular nutq

⁹ A.E.Mamatovning «Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik-frazeologik norma muammolari» (1991)

jarayoniga qadar tilda tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud bo‘ladi. So‘zlovchi bunday birikmalarni yaxlit holda nutqiga olib kiradi. Maqollar fikrni ta’sirchan, bo‘yoqdor qilib ifodalovchi qudratli vositadir. Nutqda maqollardan o‘rinli foydalanish so‘zlovchining mahorati sanaladi.

Aforizm – (grekcha) chuqur ma’noli, qisqa, ixcham ibora, hikmatli so‘z.

Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalqning turmush tajribasiga tayanib ma’lum bir shaxs tomonidan yaratilgan qisqa, obrazli barqaror birikmalarga hikmatli so‘zlar (aforizmlar) deyiladi. Hikmatli so‘zlar (aforizmlar) barqarorlik, mazmuniy yaxlitlik, takroriylik (ya’ni nutqda doimo bir xil tuzilishda quyma holda takrorlanish) belgilariga ko‘ra boshqa barqaror birliklar bilan umumiylik kasb etsa ham, aniq muallifning borligi bilan ulardan farq qiladi. Hikmatli so‘zlarni o‘rganib, xotirada saqlab, nutqda o‘rinli qo‘llay bilish kishining so‘z san’atkori, donishmand bo‘lishini ta’minlaydi. Vatan ishq oshiq sevgisidek qalbning tub-tubidan joy olgan bo‘ladi¹⁰.

Yuqoridagi tushuncha va izohlardan kelib chiqqan holda, so‘zlarning bo‘g‘lanishi va shunga ko‘ra umumiy mazmunninig belgilangan ko‘rinishda bo‘lishi, yuqoridagi izohlarni umumlashtiruvchi tomoni ekanligi ma’lum bo‘ldi. Shuningdek, frazeologik birliklar to‘g‘risidagi izohlar va tushunchalar haqida qanchalik ilmiy lug‘atlarda izlanmaylik, tushunchalar o‘rtasidagi farq unchalik katta emasligini ham ko‘rishimiz mumkin. Bu esa tarixiy davrlarni o‘z boshida o‘tkazgan bunday iboralar aniq belgilangan qoidalarga tayanishi va barchaga tushunarli lingvo birlik sifatida shakllanganligini anglaymiz.

1.2. Yapon tiliga oid idiomatik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari

Yapon tiliga oid idiomatik birliklarning bugungi holatiga yetishida bir necha asrlik tarixiy jarayonlar tajribasi muhim hisoblanadi. Qaysidir davrda o‘z ma’nosida qo‘llanilgan aynan bir gap davrlar o‘tishi bilan yagona ma’noga ega

¹⁰ B.Yo‘ldoshevning «Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional uslubi xususiyatlari» (1994)

boʻlgan ideoma, iboralarga aylanib qoladi. Bu jarayon esa idiomatik birliklar ustida juda katta izlanishlar olib borish kerakligini taqozo qilgan va hozirgi kunlarda ham bir qator tilshunos olimlar oʻz izlanishlarini olib bormoqdalar.

Ushbu malakaviy ishda yapon tilida mavjud boʻlgan idiomalarni 3 ta guruhga boʻlgan holda oʻrganiladi:

1. *Gap boʻlamlari bilan yasalgan ideomalar;*

Bu guruhga mansub boʻlgan gap boʻlamlari yaʼni, feʼl, sifat va otlar yapon tili tilshunosligida ideomalarning yasashida muhim oʻrin egallaydi. Gap boʻlamlari mavjud boʻlgan ideomalarning koʻp qismida qatnashadi. Shuningdek, gap boʻlamlari bilan yasaladigan ideomalar oʻz navbatida 3 guruhga ajratilib oʻrganiladi. Quyida ushbu guruhlar haqida misollar keltirgan holda soʻz yuritamiz:

A. *Feʼl orqali yasalgan ideomalar.*

Dastavval, feʼl orqali yasaladigan ideomalar haqida gapiradigan boʻlsak, bu usul ideomalarning ichida eng koʻp tarqalgan boʻlib, “Ot+feʼl” koʻrinishida shakllanadi. Feʼl orqali yasalgan ideomalarning yana bir xususiyati shundaki, feʼlning gramatik birliklar bilan bogʻlanishi oson boʻlgani uchun, ideomalarni yanada goʻzallashtiradi va boyitadi.

頭にくる — Atama ni kuru — *Jaxl chiqmoq;*

口に合う — Kuchi ni au — *Mazali boʻlmoq;*

口を入れる — Kuchi wo ireru — *Ogʻiz solmoq;*

目を引く — Me wo hiku — *Diqqatini oʻziga tortadigan;*

口を開く — Kuchi wo aku — *Gapirishga hozirlanmoq;*

B. *Sifat orqali yasalgan ideomalar.*

Sifat orqali frazeologik birliklarning yasalishi ham yapon tilshunosligida mavjud boʻlib, ammo qolgan ideoma yasovchi gap boʻlaklariga taqqoslaganda bir muncha kam qoʻllanilishini koʻrishimiz mumkin. Bu usulda ideomalarning

yasalishida “Ot+sifat” qoidasiga bo`ysunadi va o`rnatilgan tartibdagina ideomalar yasaladi. Yuqorida mulohaza qilganimiz fe’ldan qay jihatdan farq qilinishini ustida fikr yuritish davomida ot va sifat bog`lanish jarayonini amalga oshiruvchi bog`lovchi qo`shimchalarning o`zgarishi natijasida har bir ideomaning ham ma`nosi o`zgaririshi ma`lum bo`ldi. Bu esa, o`z navbatida bunday ideomalarning keng tarqalishiga yo`l qo`ymaydi.

顔が広い — Kao ga hiroi — *Tanish-bilishi ko`p;*

面の皮が厚い — Men no kava ga usui — *Uyalmoq;*

口が軽い — Kuchi ga karui — *Og`zi bo`sh;*

目が鋭い — Me ga surudo i — *Ko`rish qobiliyati juda o`tkir bo`lmoq;*

口が堅い — Kuchi ga katai — *Sir saqlay noldigan;*

C. Ot orqali yasalgan ideomalar.

Ot orqali yasaladigan ideomalar sifatdan ham kamroq uchraydi. Bu usulda “Ot+ot” ko`rinishida ideomalar yasalishi belgilangan. Asli xitoy tilidan kelib chiqqan ierogliflari ideomalarni yasashda asosiy o`rinni egallaydi. Ushbu usulni yasalishi juda murakkab tuzilgan bo`lib, bu malakaviy ishimda kerakli jihatlarigina ochib berishga harakat qildim, kelasi ilmiy ishlarimda bu mavzuga jiddiy qaragan holda, to`liqlar mulohaza qilishni rejalashtirdik.

後の祭り — Ato no matsuri — *Juda kech;*

水のあわ — Mizu no awa — *Barcha mehnatlarning samarasi bo`lmasligi;*

目の薬 — Me no kusuri — *Juda kamyob;*

頭の鉢 — Atama no hachi — *Bosh qopqog`I;*

赤の他人 — Aka no tannin — *Mutlaqo begona;*

2. Soʻz va soʻz birikmalari bilan yasalgan ideomalar;

Bu guruhdagi ideomalarning asosini soʻz va soʻz birikmalari tashkil etadi. Shuni taʼkidlash lozimki, yapon tilidagi mavjud boʻlgan ideomalarning asosini ushbu guruhga oid ideomalar tashkil etadi. Soʻz va soʻz birikmalari orqali yasalgan ideomalarning asosini 4 xil uslub tashkil etgan. Bu uslublar haqida fikr yuritamiz:

1) Inson tanasiga oid soʻzlar orqali yasalgan ideomalar

Yapon tilida ayniqsa, kundalik hayotda koʻp qoʻllaniladigan narsalar, odamning tanasiga oid boʻlgan soʻzlar, qisqa qilib aytganda insonni atrofini oʻrab turgan narsalarni ifodalovchi soʻzlar va soʻz birikmalari ideomalarning koʻpayishiga muhim oʻrin egallaydi. Bunday ideomalar koʻpligining sababi, oddiy boʻlib, inson oʻz hayotini oʻtkazar ekan, kundalik suhbatlarni olib boradi, bu suhbatlar natijasida oʻziga yangi maʼlumotlar oladi va suhbatdoshiga maʼlumotlar tarqatadi. Shu jarayon butun dunyo tilshunosligida juda muhim hisobladi. Yaʼni bu jarayonda tillardagi kata oʻzgarishlar paydo boʻladi, bu esa, oʻz navbatida asrlar davom etishini nazarda tutadigan boʻlsak, tilning shakllanishiga olib keladi. Aynan biz qoʻllaydigan frazeologik birliklarda ham odam tanasiga oid boʻlgan soʻzlarning koʻpligi ham aynan shunga borib taqaladi. Qaysidir davrda oʻz maʼnosida qoʻllanilgan aynan bir gap davrlar oʻtishi bilan yagona maʼnoga ega boʻlgan ideoma, iboralarga aylanib qoladi. Shuning uchun ham dunyoning qaysi tilini olib qarasangiz ham inson tanasiga oid boʻlgan ideoma va frazeologizmlar nihoyatda koʻp ekanligini koʻrishimiz mumkin. Aynan yapon tilida ham bunday ideomalar koʻpchilikni tashkil qiladi. Ayniqsa, koʻz, burun, ogʻiz, bosh, soch, yuz singari odam tanasiga oid soʻzlar yapon tilida koʻp uchraydi.

Quyida odam tanasiga oid boʻlgan soʻzlardan tashkil topgan ideomalarning bir nechtasini tanishtirib oʻtamiz.

鼻が高い — Hana ga takai — *Burni koʻtarilgan;*

腰が抜ける — Koshi ga nukeru — *Hayro qolish yoki qoʻrquv taʼsirida oʻrnidan tura olmasligi;*

目を疑う — Me wo utagau — *Ko`rayotgan narsa haqiqat ekanmi deb hayron bo`lmoq;*

口を挟む — Kuchi wo hasamu — *Gapirishga hozirlanmoq;*

頭が低い — Atama ga hikui — *Kamtar;*

2) His-tuyg`ularga oid so`zlar orqali yasalgan idiomalar.

Shu bilan birga, his-tuyg`ularga oid so`zlar bilan birlashib yasaladigan ideomalar ham mavjud bo`lib, bunda “気” (ki) ieroglifi eng ko`p bu turdagi ideomalarni yasash funksiyasini bajaradi. Yapon tilshunoslik to`g`risidagi qo`llanmalarda “気” (ki) ieroglifi ruhiy va hissiy tuyg`uni ifodalashda yetakchi so`z sifatida izohlanadi.

気がつく — Ki ga tsuku — *Sezib qolmoq;*

気が重い — Ki ga omoi — *Asabiylashmoq;*

気に入る — Ki ni iru — *Yoqtirmoq;*

気を失う — Ki wo ushinau — *Hushidan ketmoq;*

気を配る — Ki wo kubaru — *E`tibor qaratmoq;*

3) Kelib chiqishi xitoycha ieroglifli so`zlar va so`z birikmalari orqali yasalgan ideomalar.

Bu guruhda kelib chiqishi xitoycha ieroglifli so`zlar va so`z birikmalari bilan ideomalar yasaladi. Bunday iboralarni yasalishida “ot+ot” va “ot+fe`l” qoidalariga asoslanadi. Bunday iboralarni yapon tilshunosligida juda ko`p uchratishimiz mumkin. Quyida bir necha iboralarni misol tarzda berish bilan ierogliflar orqali yasalgan idiomalar haqida mulohaza qilinadi.

鬼に金棒 — Oni ni kanabou — *Qo`shimcha kuch;*

案の定 — An no jou — *Har doim;*

赤の他人 — Aka no tannin — *Mutlaqo begona;*

我慢せず — Gaman sezu — *Sabr-toqatsiz;*

先見の明 — Senken no akira — *Ehtiyotkor;*

4) Chet tilidan o`zlashgan so`zlar orqali yasalgan ideomalar;

Aynan ushbu bitiruv malakaviy ishimizning bosh mavzusi bo`lmish o`zlashma so`zlar orqali yasalgan ideomalar ham ushbu guruhga mansubdir. Shu sababli so`z va so`z birikmalari orqali yasalgan idiomalar guruhi to`g`risida batavsil to`xtalib, o`zlashma so`zlar orqali yasalgan idiomalar to`g`risida dastlabki ma`lumotlarni ko`rib chiqib, malakaviy ishning keyingi bobida o`z fikr va mulohazalarimizni davom ettiramiz.

Yapon tiliga Yevropa va boshqa dunyo tillaridan kirib kelgan so`zlarni kata miqdorda ko`rishimiz mumkin.

Aynan shu sababli frazeologik birliklarda ham o`zlashma so`zlar orqali yasalgan holatlarni uchratishimiz mumkin. Bu guruhda ideoma yasalishi “chet tilidan o`zlashma ot+yapon tilidagi fe`l” ko`rinishida bo`ladi. Ayniqsa, ingliz, fransuz, portugal va golland tillaridan o`zlashgan so`zlar orqali yasalgan idiomatik birliklarni ko`p uchratishimiz mumkin.

Quyida o`zlashma so`zlar orqali yasalgan ideomalarning bir nechtasini misol sifatida keltirib mulohaza qilamiz.

ピンからキリまで — Pin kara kiri made — *Biror bir ishni eng boshidan ohiriga qadar;*

スタートを切る — Sutato wo kiru — *Biror bir ishni boshlamoq;*

イニシアチブをとる — Inishiachibu wo toru — *Boshqarmoq;*

バトンを渡す — Baton wo watasu — *O`z ishini qo`l ostidagi odamga topshirmoq;*

ストップをかける — Sutoppu wo kakeru — *Biror bir jarayonni to`xtatmoq;*

スポットライトをかける — Supottoraito wo kakeru — *Barchaning e`tiborini qozonmoq;*

ベストを尽くす — besuto wo tsukusu — *Qo`ldan kelgan barcha ishni qilmoq;*

トーンが落ちる — Ton ga ochiru — *Fikrning kuchsiz aytilishi;*

ガードが甘い — Gado ga amai — *Barchani o`z yaqini deb ko`rish;*

パイプ通す — Paipu wo toosu — *Ikki fikr mujassamlashtirish;*

ノルマを果たす — Noruma wo hatasu — *Rejani bajarmoq;*

オブラートに包む — Oburato tsutsumu — *Kuchli havotirga tushmasligi uchun ehtiyotkorlik bilan gapirmoq;*

ピンチに陥る — Pinchi ni ochiiru — *Havfli ahvolda qolmoq;*

モルモットにする — Morumotto ni suru — *Tajriba obyektiga aylantirmoq;*

ジレンマに陥る — Jirenma ni ochiiru — *Qaysi tomonni bilmay qiyin ahvolga tushmoq;*

ユーモアに富む — Yumoa ni tomu — *Hazilga boy bo`lmoq;*

ワンクッション置く — Wankushshon wo oku — *Shok holatini yumshatish maqsadida arqonni uzuntashlamoq;*

バトンタッチする — Batontachchi suru — *O`zidan keyingi avlodga ishini qoldirmoq;*

メスを入れる — Mesu wo ireru — *Biror muommoni yechimi uchun aniq chora-tadbirlar ko`moq;*

ブレーキをかける — Bureki wo fumu — *Boshqa oldinga silja olmaslik;*

ステップを踏む — Suteppu wo fumu — *Biror ishni o`z navbati bilan qilmoq;*

ルールを敷く — Reru wo shiku — *Muvafaqiyatli bo`lish uchun tayyorgarlik ko`rmoq;*

ピッチを上げる — Pichchi wo ageru — *Tezlikni oshirmoq;*

1.3. O'zbek tiliga oid iboralarining ma'no xususiyatlari

Iboralar¹¹ ahamiyati va qo'llanishi jihatidan, odatda, so'zga teng keladi.

Iboralar ko'chma ma'no ifodalaydi va ta'sirchanlikka, obrazlilikka ega bo'ladi. Iboralar gap tarkibida yaxlit ko'rinishda bitta so'roqqa javob bo'ladi va bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradi. O'zbek tilida ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi. Barqaror birikmalarining eng xarakterli belgilari quyidagilar:

Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik;

nutqqa tayyor holda olib kirishlik;

Ma'no butunligi;

Ayrim iboralar tarkibiga boshqa so'zlarni kiritish yoki tarkibidagi so'zlarni o'zgartirishi mumkin: ko'zi tushdi – ko'zi menga tushdi; burni ko'tarilgan – burni ko'tarilib ketibdi – burni ko'tarilibdi va h.

Iboralar ko'proq so'zlashuv va badiiy uslubda ishlatiladi. Ulardan unumli foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Til fanining iboralarni o'rganadigan bo'limi frazeologiya deb ataladi. Iboralar o'rtasida ham o'zaro omonimlik, sinonimlik, antonimlik va paronimlik bo'lishi mumkin. Omonim iboralar: dam bermoq – yel haydamoq, dam bermoq – hordiq bermoq; ko'z yummoq – o'lmoq, ko'z yummoq – e'tibor bermaslik, boshiga ko'tarmoq – e'zozlamoq, boshiga ko'tarmoq – to'polon qilmoq; sinonim iboralar: tegirmonga tushsa butun chiqadi – suvdan quruq chiqadi; antonim iboralar: yerga urmoq – ko'kka ko'tarmoq; paronim iboralar: yuragi tars yorilib ketayozdi – sabr-chidami tugamoq, yuragi qoq yorila yozdi – sevinganidan qattiq hayajonlanmoq.¹²

¹¹ Idiomatik birlik sifatida ibora atamasi ham ishlatiladi. M.A.Hamroyev. "O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi" 2005. 56-57 betlar.

¹² M.A.Hamroyev. "O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi" 2005

O'zbek tilida ma'no ko'chishning quyidagicha usullari mavjud:

- **Metafora usuli bilan ma'no ko'chish**

Bunda ma'no ko'chish hodisasi ot, fe'l, sifat so'z turkumlarida ko'p uchraydi.

O'zbek tilidagi quyidagi metaforalarni ko'rishimiz mumkin:

oltin kuz, temir intizom, po'lat iroda; shirin gap, achchiq haqiqat, uzun suhbat; suhbat qizidi, ko'ngli sovudi, gap cho'zildi.

E'tibor berilsa, barcha o'rinlarda o'xshashlik birinchi o'ringa chiqayotganini va metaforani vujudga keltirayotganini sezish mumkin. Metafora usulidan badiiy uslubda ham faol foylaniladi.

- **Metonimiya (aloqadorlik) asosida nom ko'chish.**

Metonimiya so'zi yunoncha metonymia – “qayta nomlash” so'zidan olingan bo'lib, biror predmet, voqea-hodisani o'xshashlik asosida emas, balki zamon va makondagi o'zaro aloqadorlik asosida yangi nom bilan ataydi, birinchisining nomi ikkinchisiga ko'chadi.

Metonimiyaning asosiy ko'rinishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Biror predmet yoki hodisadagi nom shu qismga ko'chiriladi. Masalan: shahar – odamlar g'uj yashaydigan, madaniy markaz. Butun shahar ko'chib chiqdi gapida esa shaharda yashovchi odamlar nazarda tutilyapti. Bosh – odam gavdasining yelkadan yuqori qismi. Boshim qotib qoldi gapida esa miya ma'nosini beryapti.

Demak, bunday holatlarda predmetlar o'rtasidagi ma'no ko'chirish uchun mezon qilib olinadi.

Biror narsaning nomi shu narsaga asoslangan o'lchov birligining nomi sifatida olinadi: kun-quyosh, kun-24 soatlik o'lchov birligi, soat-kun vaqtlarini aniq ko'rsatib beruvchi mexanizm, soat – aniq vaqt, oy – samodagi planeta nomi, oy – yil bo'lagi.

Bir predmetning nomi shu predmetdan hosil qilingan narsaga ko'chiriladi. Masalan, choy-o'simlik, choy-ichimlik, suv-tabiiy suyuqlik, suv-har xil sanoat mahsulotlari va hokazo.

Belgining nomi shunday belgisi bor narsaga ko‘chiriladi; achchiq (maza, ta‘m) – achchiq (qalampir), chayon (zaharli hasharot) – chayon (serjahl, yomon odam), zahar (og‘u) – zahar (maraz odam) va shu kabilar.

Ayrim narsa predmetlar nomi ma‘lum bir xatti-harakatlar natijasida o‘zaro aloqadorlik yo‘li bilan hosil qilingan, lekin bu usul diaxron xarakterga ega bo‘lib, tilimizning bugungi bosqichida uchramaydi: qatlama – xamirni qat-qat qilib qo‘yish natijasida, to‘y – to‘ymoq fe‘lidan, qirindi – qirmoq so‘zidan yasalgan.

Boburni yodladim, Amerikani uchratdim, Navoiyni varaqlab ko‘rdim, Navoiyi oldim qo‘limga kabi birliklarda ham aloqadorlik hodisasi mavjud deb qaraladi.

Sinekdoxa asosida nom ko‘chish.

Sinekdoxa so‘zi yunoncha synekdoche – nazarda tutish so‘zidan olingan bo‘lib, qism orqali butunni, butun orqali esa qismini ifodalash sanaladi. Sinekdoxa usuli asosida ham predmetlar orasidagi aloqadorlik yotadi. Shu bois unga metonimiyaning bir ko‘rinishi sifatida baho berish ham mumkin, lekin bu aloqadorlikda butun bo‘lak munosabati doimo yaqqol ko‘rinib turadi. Misollarga e‘tibor beraylik: Tuyuq boqmoq (mol yoki qo‘y boqmoq), tirnoqqa zor (farzandga) kabi ko‘rinishlarda qism orqali butun ifodalanyapti.

O‘zbekiston yutdi, Farg‘ona keldi iboralarida esa bir kishi yoki guruh nazarda tutiladi. Bunday o‘rinlarda esa butun orqali qism ifodalanadi.

Vazifadoshlik asosida nom ko‘chish.

Ma‘no ko‘chishning yana bir usuliga funksional ko‘chish deyiladi. Ba‘zi bir adabiyotlarda unga vazifadoshlik asosidagi ma‘no ko‘chish, ya‘ni vazifadoshlik deb ham baho beriladi. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, ma‘no ikki predmet o‘rtasidagi vazifaviy o‘xshashlik asosida ko‘chiriladi. Masalan: oyoq insonning tik turishi uchun xizmat qiladigan anatomik organi. Stulning oyog‘i deb ataganimizda ham mana shu funksiyaga asoslaniladi.

Odamning ko‘zi – derazaning ko‘zi (har ikkalasi ko‘rish uchun), qushning qanoti – samolyotning qanoti (hap ikkalasi uchish uchun) misollarida ham vazifadoshlik asosidagi ma’no ko‘chishni kuzatishimiz mumkin.

Yana shuni ham alohida aytib o‘tish joizki, ba’zi bir holatlarda bir faktning o‘zida metaforik – vazifadoshlik, metaforik – metonimik yoki metonimik-vazifadoshlik, metaforik – sinekdoxa usullari namoyon bo‘lib qoladi. Misol uchun ko‘k-osmon, ko‘k-tepa, yuqori, bosh-kalla, bosh-bir juft holatlarida metaforadan tashqari metonimik holat ham mavjud.

Umuman olganda, yapon tilida va dunyo tillarida ham so‘z ma’nosining ko‘chishi murakkab va ko‘p qirrali hodisa sanaladi. Ma’no ko‘chishning yuqoridagi kabi turlari nutqimizning ta’sirchanligini oshirishda, ifodali, jozibali bo‘lishida katta ahamiyatga ega.

II-bob. Yapon tilida o`zlashma leksemalar bilan yasalgan idiomalarning ma`no hususiyatlari

2.1. Yapon tilida o`zlashma so`zlarning ahamiyati

Dunyoning barcha tillarida o`zlashma so`zlar mavjuddir. O`zlashma so`zlarning ba`zilari mahalliy so`zlar bilan qorishish holatlarini ham ko`rish mumkin. Odatda o`zlashma so`zlar fonetik, gramatik va leksik-semantik hususiyatlarini saqlab qoladi. Dunyo tillarining ko`pchiligida ikki ko`rinishdagi leksika mavjuddir:

- Mahalliy so`zlar;
- O`zlashma so`zlar;

Yapon tilida bu holat bo`yicha leksik ko`rinishlar 3 ta guruhga bo`lib o`rganiladi.

**Mahalliy so`zlar** (Vago) - Aynan kelib chiqishi yapon tiliga oid so`zlarga nisbatan qo`llanilib, “*hiragana*” alifbosi harflari bilan leksika ifodalaniladi.

Misol sifatida:

- あきる — akiru
- ふるさと — furusato

Xitoy tilidan o`zlashgan so`zlar (*kango*) - bunday so`zlar “kanji” alifbosi orqali ifodalaniladi. xitoy ierogliflari orqali mahalliy so`zlarning “hiragana” alifbosidagi yozilishining qisqartmasi hisoblanadi. Bu esa, yapon tilidagi uzundan-uzun so`zlarning aynan bir belgi orqali qisqargan holda o`rganishga yordam beradi. Shu bilan birga yapon tilining o`ziga xosligini ochib beruvchi alifbo sifatida yapon tilshunos olimlari tomonidan tan olingan. Misol sifatida:

- 科学者 — kagakusha
- 東洋学 — touyougaku

O`zlashma so`zlar (*gairaigo*) - chet el tillaridan yapon tiliga o`zlashgan so`zlar uchun yagona alifbo sifatida qo`llaniladi. “Katakana” alifbosi harflari qo`llaniladi. Bu esa, o`zlashma so`zlarni farqlashda muhim rolni o`ynaydi.

Misol sifatida:

- ピリオド — periodo
- マンション — manshon

Yuqorida leksik birliklar yapon tilini o`rganishda “hiragana”, “kanji” va “katakana” larni bilish muhim obyektga aylanadi. Yapon tilida yozilgan bir tekstning o`zida barcha alifbo harflari qo`llaniladi, shuning uchun ham yapon tilini o`rganuvchilar bir vaqtning o`zida 3 ta alifboni mukammal darajada egallagan bo`lishligi talab qilinadi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishning mavzusi yapon tiliga oid leksema bilan yasalgan idiomatik birliklar ekanligini nazarda tutadigan bo`lsak, “katakana” alifbosi muhim o`rganish obyektlaridan biridir.

Yaponiya dunyoda hamjamiyatida o`z o`rniga ega davlat hisoblanib, deyarli barcha mamlakatlar bilan ko`p sohalarda yaqin aloqalarga ega. Bu esa, o`z navbatida yapon tiliga ham ta`sir ko`rsatib, kundan-kunga yapon tilshunoslik leksikasida o`zlashma so`zlarning soni oshib bormoqda. Bunday so`zlarning kundalik hayotda qo`llanila boshlashi bilan birga yapon tiliga oid bo`lgan idiomalariga ham o`z ta`sirini ko`rsatmay qolmadi. “Har bir davlatda qadimgi davrlardan odamlarning suhbatlari jarayonida qo`llanilib, zanjir tarzida avloddan-avlodga o`tib boruvchi va shu bilan birga aynan bir davlatning o`ziga hos madaniyati, narsalarga nisbatan bo`lgan qarashlar va fikrlash doirasiga asoslangan holda idiomatik birliklar vujudga keladi” deb mazkur malakaviy ishning asosiy qismi I bobida aytib o`tgandik. Lekin shunday qat`iy shartlari bo`lgan idiomalarga qanday qilib o`zlashma so`zlar qo`llaniladi boshladi. Albatta bunda ham tarixiy jarayonlarning o`rni kattadir. Ayniqsa 1868-yidagi “Meyji inqilobi” dan keyingi davrlarda yaponiya dunyo hamjamiyatiga ildam qadamlar bilan chiqdi, bu esa, Yaponiya deyarli 250 yil mobaynida “yopiq davlat” sifatida hayot kechirgan yapon xalqi bilan chet elliklar bilan muloqotlarning imkoniyati yaratildi. Aynan shu muloqotlar natijasida yangi o`zlashma leksemalar vujudga kelgan. O`zlashma

soʻzlarning ilmiy lugati¹³ ustida izlanish olib borish natijasida ingliz, golland, fransuz va portugal tillaridan tilidan kirib kelgan oʻzlashma soʻzlarning soni koʻp ekanligi maʼlum boʻldi.

Oʻzlashma soʻzlarning koʻpayishi va kirib kelish jarayonini 3 ta davrga boʻlgan holda oʻrganiladi:

1. XVI-XVIII asrda birinchi marta yevropaliklar yaʼni portugaliyaliklar va gollandiyaliklar bilan suhbatga kirishish va hamkorliklar qilish evaziga eng birinchi oʻzlashma soʻzlar paydo boʻlgan. Bunda oʻsha davrga qadar yaponiyada mavjud boʻlmagan narsalarning atalishi koʻpchiligini tashkil etadi.

Misol sifatida:

- パン — pan
- タバコ — tabako
- コーヒー — kofi

Yuqoridagi soʻzlar hozirgi kunda mahalliy soʻzlar safiga qoʻshilgan desak ham boʻʻladi. Chunki タバコ singari soʻzlar odatda oʻzlashma soʻzlarning yozilish qoidasiga binoan katakana alifbosida yoziladi. Ammo bir qancha darslik va qoʻllanmalarda 煙草 koʻrinishida yoziladi.

2. XIX asrning ohiri XX asrning boshlarida oʻzlashma soʻzlarning keskin koʻpayishini kuzatishimiz mumkin. 1931- yilga kelib, faqatgina ingliz tilidan kirib kelgan soʻzlarning oʻzi 5500 taga yetgan.¹⁴ shu bilan birga fransuz, nemis tillaridan ham koʻp soʻzlar kirib kelgan.

Misol sifatida:

- アルバイト — arubaito

¹³ katakana

¹⁴ Harada, 1966, b.150

- ズボン — zubon

3. Urushdan keying davrda yaponlar Amerikaning mustamlakasiga aylanishi ham o`zlashma so`zlarning ko`payishida kata omil hisoblanadi. Bu davrning o`ziga hosligi shundaki, yapon tiliga kirib kelgan inglizcha so`zlar amerika variant bo`yicha o`zlashganligidir. Bunga ayniqsa so`zning fonetik jihatdan o`zgarishiga sabab bo`lgan. Yana shu bilan birga avvaldan, kelib chiqishi yapon tiliga oid so`zning ekvivalenti sifatida o`zlashma so`zlarning qo`llanishi urf bo`lganligi ham ushbu davrning o`ziga hos jihatlaridan biri hisoblanadi.

Misol sifatida:

- ホーム — homu
- コート — koto
- テーブル — teburu

O`zlashma so`zlar va kango o`rtasida necha yillardan buyon o`zaro raqobat davom etmoqda. Bunda gairaigo yildan-yilga bir muncha ustunlikka ega ekanligi tobora oydilashmoqda. Chunki gairaigo hozirgi zamon so`zlari deb nomlanib, ushbu so`zlarni qo`llaydiganlarni zamonaviy insonlar deb ham atay boshlashgan.

2.2. O`zlashma idiomatik birliklarning qo`llanilishi

Yaponiya dunyoda o`z o`rniga ega davlat hisoblanib, deyarli barcha mamlakatlar bilan ko`p sohalarda yaqin aloqalarga ega. Bu esa, o`z navbatida yapon tiliga ham ta`sir ko`rsatib, kundan-kunga yapon tilshunoslik leksikasida o`zlashma so`zlarning soni oshib bormoqda. Bunday so`zlarning kundalik hayotda qo`llanila boshlashi bilan birga yapon tiliga oid bo`lgan idiomalariga ham o`z ta`sirini ko`rsatmay qolmadi. Shunday qilib, koreys tili so`zlashuv uslubi keng qo`llaniladigan so`zlar va ifodalardan iboratdir. N.M.Shanskiy ta`kidlaganidek, “So`zlashuv uslubining o`ziga xos xususiyatlaridan biri nutqdagi so`zlarning ham

badiiy uslubda ham kitobiy uslubda kela oladigan soʻzlarning ham qoʻllana olinilishi hisoblanadi. ”¹⁵Bunday soʻzlar badiiy soʻzlashuv uslubiga oid soʻzlar deb atalib, odamlar oʻzaro muloqotlari paytida juda koʻplab qoʻllaydilar. Yapon tilida ham huddi shunday soʻzlarni uchratishimiz mumkin.

Idiomatik birliklar – boshqa tillardan kirib kelgan oʻzlashma soʻzlar hisobiga shakllanadi. Bunday birliklar muhim hisoblanadi lekin shu bilan birga frazeologik birliklarni boyitadigan asosiy manba hisoblanmaydi. Yapon tilidagi oʻzlashma leksema bilan yasalgan idiomatik birliklarni juda kam koʻrish mumkin. Bu yapon tilshunosligida kam uchraydigan bunday hodisani yanada chuqur tadqiq qilish maqsadida yapon va yapon tilini oʻrganuvchi talabalardan ogʻzaki soʻrovnoma oʻtkazdim. Bundan quyidagicha natijalar paydo boʻldi. Idiomalar haqida barcha juda yaxshi maʼlumotga ega boʻlib, lekin oʻzlashma leksema orqali ifodalaniladigan holat haqida juda kam sonli ogʻzaki soʻrovnomada qatnashgan ishtirokchilar habardor ekanligi maʼlum boʻldi.

Oʻzlashma soʻz katakana alifbosida yozilishi sababli oʻqish mobaynida farqlash oson boʻlsada, suhbat jarayonida yapon tili mahalliy soʻzlari bilan fonetik jihatdan qorishib ketganligi sababli, aniq farqlash boʻyicha qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shuning uchun, yaponiyada bolalarga bogʻcha davrlaridan boshlab gairaigo darslari oʻrgatila boshlanar ekan. Bu bilimlar boshlangʻich maktabga kelib, mustahkamlash maqsadida katakana alifbosi oʻrgatil holda soʻz boylikni boyitishga ahamiyat qaratilsa, oʻrta maktab oʻquvchilariga esa oʻzlashma soʻzlarning kelib chiqish tarihi, qoʻllash mobaynidagi nozik holatlari haqida kerakli maʼlumotlar berilib boriladi.

Ogʻzaki nutq uchun xarakterli boʻlgan oddiy muomaladagi soʻzlar oʻzining soddaligi, hammaga tushunarli boʻlishi bilan yozma nutqdagi soʻzlardan ajralib turadi. Ogʻzaki nutqda uslubiy boʻyoqdor soʻzlar koʻp ishlatiladi, unlarda soddalik, taʼsirchanlik, baʼzan esa erkinlik sezilib turadi. Ogʻzaki nutq leksikasiga

¹⁵ Шанский Н.М. Стилистика русского языка. –Л.: Просвещение. 1989. 92с.

Yuqoridagi keltirilgan soʻzlar ogʻzaki nutq leksikasida eng koʻp ishlatiladigan soʻzlar hisoblanadi.

Bundan tashqari soʻzlashuv uslubi leksikasida ikki qatlam alohida ajratilib koʻrsatiladi.

Birinchi qatlamga kundalik turmush muomalasida faol qoʻllaniladigan ijtimoiy hayot va uy – roʻzgʻor yumushlari bilan bogʻliq soʻzlar kiritiladi. Bundan tashqari bu uslubda “siyosat, sanʼat, madaniyat, sport va soʻzlovchining kasb-hunarga mansub xilma-xil narsa – hodisalarni ifodalovchi umumadabiy leksika koʻplab ishlatiladi”.¹⁶

Norasmiy soʻzlashuv uslubiga oid soʻzlar esa oʻzaro yaqin aloqadagi insonlar, doʻstlar uchun moʻljallangan boʻlib, soʻzlovchining tinglovchiga nisbatan iliq va doʻstona munosabatini namoyon qilishda yordam beradi.

Bunday soʻzlarning ishlatiladigan doirasidan tashqarida qoʻllash orqali soʻzlovchilarning orasida muloqotga kirishishni yanada osonlashtirib, ular orasidagi bir-biriga ishonchni bildirib ham keladi.

Har bir davlatda qadimgi davrlardan odamlarning suhbatlari jarayonida qoʻllanilib, zanjir tarzida avlodlardan avlodga oʻtib boruvchi va shu bilan birga aynan bir davlatning oʻziga hos madaniyati, narsalarga nisbatan boʻlgan qarashlar va fikrlash doirasiga asoslangan holda idiomatik birliklar vujudga keladi. Lekin shunday qatʼiy shartlari boʻlgan idiomalarga qanday qilib oʻzlashma soʻzlar qoʻllaniladi boshladi. Albatta bunda ham tarixiy jarayonlarning oʻrni kattadir. Ayniqsa 1868-yidagi “Meyji inqilobi” dan keyingi davrlarda yaponiya dunyo hamjamiyatiga ildam qadamlar bilan chiqdi, bu esa, Yaponiya deyarli 250 yil mobaynida “yopiq davlat” sifatida hayot kechirgan yapon xalqi bilan chet elliklar bilan muloqotlarning imkoniyati yaratildi. Aynan shu muloqotlar natijasida yangi oʻzlashma leksemalar vujudga kelgan. Oʻzlashma soʻzlarning ilmiy lugati¹⁷ ustida

¹⁶Shomaqsudov A. Oʻzbek tilistilistikasi. - Toshkent: Oʻqituvchi. 1983. 15-bet

¹⁷ katakana

izlanish olib borish natijasida ingliz, golland, fransuz va portugal tillaridan tilidan kirib kelgan o'zlashma so'zlarning soni ko'p ekanligi ma'lum bo'ldi.

Yuqorida oydinlashgan muommoning yechimini toppish maqsadida ushbu bitiruv malakaviy ishda bunday idiomatik birliklarning aniq sonini aniqlash, ularning yapon tilida qo'llanilishini o'rganib chiqish maqsadida, “Yapon tili ilmiy-tadqiqot katta lug'ati”¹⁸, “Yapon tili idioma lug'ati”¹⁹ va “Yapon tilini o'zlashtirish imtihoni 1-daraja(JLPT)”²⁰ larning ilmiy-tekshiruv natijasida 47 ta yapon tilida o'zlashma leksema bilan yasalgan idiomalar mavjud ekanligi aniqlandi. Bulardan 32 ta idioma kundalik hayotda keng tarqalgan va so'rovnoma vaqtida ham bu o'zini aksini topdi. Yuqoridagi 32 ta ideomalar mazkur malakaviy ishimizning ilova qismiga biriktirilib qo'yiladi. Ilova qismiga ushbi idiomalar jadval tarzda ilova qiliniob, bunda idiomaning yapon tilida yozilishi, o'qilishi va o'zbek tilidagi ma'nosi bilan berilgan. Qolgan 15 ta idioma esa, ko'p qismi tarixiy so'zlar yoki eskirib qolgan so'zlardan tashkil topganligi uchun yapon tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda bir qator qiyinchilik tug'ilgan sababli, ilova qismida qo'shimcha ravishda beriladi. Kelgusi ishlarda bu idiomalarning tarjimasi ustida ilmiy-tadqiqot ishlari davom ettiriladi.

II bobning ushbu qismida ana shu 47 ta idiomatik birlikga urg'u bergan holda mavzu yoritiladi. Idiomalarda uchraydigan o'zlashma so'zlarning asosini ingliz tiilidan kirib kelgan so'zlar tashkil qilsada, shu bilan birga fransuz, portugal va golland tillaridan o'zlashgan so'zlar ham ko'rishimiz mumkin.

エンジンがかかる

ストップがかかる

パンチが効く

バックが付く

¹⁸ 『学研国語大辞線』 1978 (gakkyu kokugo jiten)

¹⁹ 『国語慣用句辞典』 2005 (kokugo kanyouku jiten)

²⁰ 『日本語能力試験 N1 語彙対策』 2010 (nihongo nouryoku shaken N1)

ハードルが高い

Yuqoridagi soʻzlardan ham shuni anglashimiz mumkinki, ingliz tilidan oʻzlashgan soʻzlar qoʻllanilgan idiomatik birliklarning yaqqol ajralib turishini koʻrishimiz mumkin.

Maʼlumki, yapon tilini chet tili sifatida oʻrganish bizdan leksik boylikni talab etadi. Biz ilmiy, ommabop, badiiy uslublaridagi matnlarni oʻrganar ekanmiz, biz nafaqat leksik boyligimizni oshiramiz shu bilan bir qatorda koreys tili matnlarining grammatik jihatdan qurilishlarini, uslubiy qurilishlarini, badiiy vositalarni berilishlari haqida ham maʼlumotlarga ega boʻlamiz. Koreys matnlarida keltiriladigan oʻziga xos madaniyatiga oid soʻzlar orqali esa uning madaniyatidan ham xabardor boʻla olamiz. Shuning uchun koreys tilidagi matnlar bilan tanishish muhimligini baholash qiyin boʻlgan ijtimoiy vazifa boʻlib ham keladi.

Yapon tilini oʻrganish bilan bir qatorda uning uslubiyatini ham chuqur oʻrganish zarur. Shu bilan bir qatorda zamonaviy koreys tilidagi uslubiyatning oʻziga xos xususiyatlari haqida maʼlumotga ega boʻlish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday maʼlumotlarga ega boʻlish orqali soʻzlarni uslubiy jihatdan toʻgʻri qoʻllash va uslubiy xatolarga yoʻl qoʻyishning oldini olish mumkin.

Ogʻzaki nutqda keng qoʻllaniladigan leksikalardan tashqari yana frazeologik birliklar ham mavjud boʻlib, bu birliklar, ayniqsa, koreys tili ogʻzaki nutqida keng qamrovda foydalanilib kelinadi. Frazeologizmlar nutqning taʼsirchan vositalaridan boʻlib, soʻzlashuv nutqida va badiiy adabiyotda keng qoʻllaniladi. Ikki yoki undan ortiq soʻzdan tarkib topgan va yaxlit bir maʼno ifodalaydigan til birligi frazeologik ibora deyiladi. Frazeologizmlar yaxlitligicha yoki muayyan soʻzning koʻchma maʼnoda qoʻllanishi asosida yuzaga keladi.

Masalan, エンジンがかかる iborasi tarkibidagi soʻzlar bir butun holda koʻchma maʼnoda qoʻllanib, *zavq uygʻonmoq* tushunchasini ifodalagan. Shu bois

ular nutqning erkin sintaktik birliklaridan farqli ravishda, tilning turg'un birikmalari hisoblanadi. Frazеologik iboralarning so'zlar singari tilning lug'aviy birliklari qatoridan o'rin egallaydi.

Yapon tili frazeologik birliklarga juda boy tillardan biri hisoblanadi. Bu frazeologik birliklardan esa asosan og'zaki nutqda foydalanadilar.

Yapon tilidagi har bir frazeologik birlik o'zining milliy o'ziga xos ma'nosiga ega bo'ladi. Masalan milliylikni ko'rsata bera oladigan buyum yoki narsaning berilishi bilan o'ziga xos ma'no qo'shib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak koreys tilining so'zlashuv uslubi o'ziga xos leksikalari va frazeologik birliklari bilan ajralib turadi. Bu so'zlar va frazeologik birliklar nutqni yanada boyitadi va unga yorqinlik va bo'yoqlikni qo'shadi. Koreys tilining og'zaki nutqida ayniqsa uning o'z madaniyatiga oid leksikalar va frazeologizmlar ko'p uchraydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu bitiruv malakaviy ishida yapon tilshunosligida o'zlashma leksemalardan yasalgan idiomatik birliklar hususidagi tadqiqotga oid muommalarni yechimini topish uchun ushbu tadqiqotda ideomatik iboralarga oid adabiyotlarni topish, o'zlashma leksema orqali yasalgan idiomatik birliklarni topish bilan bir qatorda har bir ideomalar ustida chuqur mulohaza qilishni ilmiy-tahlil etishga bag'ishlandi.

Maqsaddan kelib chiqqan **natijalar** quyidagilardan iborat:

- Yapon tilida va o'zbek tilida idiomatik birliklarga ilmiy asosda izoh berildi hamda ikki til orasidagi o'xshash va noo'xshash jihatlarini tadqiq qilindi.
- Idiomatik birliklarning o'ziga xos xususiyatlarini 3 ta guruhga, ya'ni gramatik, leksik va ma'no ko'chirish orqali yasalishini o'rganildi.
- O'zbek tilida oid iboralarning ma'no xususiyatlarini tahlil qilindi.
- Yapon tilidagi o'zlashma so'zlarning kelib chiqishi, qo'llanilishini o'rganildi.
- O'zlashma idiomatik birliklarning qo'llanilishini misollar ko'rinishida ilmiy tahlil qilib o'rganildi.

Bitiruv malakaviy ishning natijalari haqida batavsil so'z yuritadigan bo'lsak, asosiy qismining eng boshidagi vazifa bo'lmish yapon va o'zbek tilida idiomatik birliklarga ilmiy asosda izoh berildi. Bunda ikki til orasidagi o'xshash va noo'xshash jihatlari tadqiq qilindi. Shu bilan birga idiomatik birliklarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganildi. Mavzu bo'yicha ilmiy-tahlil qilish jarayonida yapon tilida idiomalarning yasallishini 3 ta guruhga bo'lib o'rgandik. Gramatik, leksik va ma'no ko'chirish orqali yasallishi aniqlandi. Leksik jihatdan idiomalarning yasallish holati keng tarqalgan.

O'zbek tilida oid iboralarining ma'no xususiyatlarini tahlil qilish orqali o'zbek tilida iboralarining yasashida ma'no ko'chish usuli katta rol o'ynashini ko'rishimiz mumkin.

Yapon tilidagi o'zlashma so'zlarning kelib chiqishi, qo'llanilishini o'rganish bo'yicha, chuqur ilmiy-tahlil olib borilib, bu natijasida yapon tiliga oid o'zlashma so'zlarni 3 ta davrga bo'lgan holda mulohaza qilindi. Bundan, XVI asrdan boshlangan o'zlashma so'zlarning kirib kelishi "Meydji" inqilobidan keyingi davrga kelib, juda keskin ravishda ko'payganini aniqlandi.

O'zlashma idiomatik birliklarning qo'llanilishini misollar ko'rinishida ilmiy tahlil qilib o'rganish bo'yicha avvalo, yapon jamiyatida hozirgi kunda qo'llanilayotgan o'zlashma leksema bilan yasalgan idiomatik birliklarni ilmiy lug'atlardan 47 iborani izlab topgan holda ularga mos bo'lgan tarjimalari topildi. Ushbu iboralarining ichida 15 ta ibora tarixiy yoki eskirgan so'zlar bo'lganligi sababli tarjima qilish jarayonida qiyinchiliklar paydo bo'ldi va shu sababli ushbu tarjimalar ustida keyingi malakaviy ishlarda chuqur muloha olib borgan holda tarjima ustida ishlaniladi. Bundan tashqari o'zlashma ideomalarining xususiyatlari hususida so'z yuritilib, ideomalarda juda ko'p tillardan kirgan o'zlashma so'zlarning mavjud ekanligi, ayniqsa ingliz, fransuz va golland tillaridan kirib kelgan so'zlar ko'pchilikni tashkil etishi aniqlandi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda dastlab har bir tilda mavjud bo'lgan ideomatik birliklarga oid ma'lumotlarni misollar orqali izoh beriladi. So'ngra, yapon tilidagi ideomalarining gramatik tahlili va ilmiyliliga izoh beriladi va yapon tili izohli lug'ati va ideomatik lug'atlardan foydalangan holda yapon jamiyatiga oid bo'lgan kundalik hayotda qo'llaniladigan o'zlashma leksema orqali yasalgan ideomalarining ro'yhati tuziladi. Shu bilan birga ro'yhatdagi ideomalarining ma'nosi, qo'llanilish maydoni, qanday qilib bu ideomalar paydo bo'lganligi to'g'risida ham chuqur tadqiq qilinadi.

Shu vaqtga qadar yapon tilshunosligida ideomalariga doir ilmiy va tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, odam tanasiga oid ideomalar haqidagi ilmiy-tadqiqot

ishlar juda ko'p uchraydi. Ammo o'zlashma leksemalardan yasalgan ideomatik birliklar to'g'risidagi ilmiy ishlarning yetishmovchiligi ko'rindi. Bu esa, ushbu mavzu bo'yicha kelajakda bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borish kerak ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishida o'zbek, o'zbek tillaridagi materiallar va rus tillardagi tilshunos olimlarning asarlaridan tashqari, yapon olimlarining ushbu mavzudagi yapon tilidagi adabiyotlardan o'zbek tiliga tarjima qilgan holda foydalanildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Prezident I.A.Karimov asarlari

Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Havfsizlikka tahdid va barqarorlik shartlari" T.:Sharq, 1997, 142-bet

Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" T.: "O'zbekiston", 1997. 259-bet

Karimov I.A. "Bunyodkorlik yo'lidan". O'zbekiston, Toshkent., 1996, 4-88-betlar

Asosiy adabiyotlar

1. Mamatovning A. "Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik-frazeologik norma muammolari" 1991
2. Yo'ldoshevning B. "Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional uslubiy xususiyatlari" 1994
3. Rahmatullayev Sh. "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" 1978
4. Hamroyev M.A. "O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi" 2005.
5. Шанский Н.М. Стилистика русского языка. – Л.: Просвещение. 1989.
6. Yo'ldoshev B. Frazeologiya tarixidan lavhalar.-Samarqand:So'g'diyona, 1998.-110 b.
7. Языковая ситуация в Японии (общая характеристика) // Под парусом «Паллады». СПб., 2008. С. 31-45. (0,5 п.л.)
8. Uno Yosikata "Syakai to keigo" 1977
9. Tanaka Noriko "Nihon go no nka no katakana eigo" 1984
10. Furuta Tosaku "Kogo toiu kotoba" Fukuoka-1982

Qo'shimcha adabiyotlar

11. Mamatovning A. "O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari" 2000

12. Быкова С.А. «Япоско-русский фразеологический словарь» 2-е изд. Москва. 2007
13. 『学研国語大辞線』 1978 Gakkyu kokugo daijisen (”Ilmiy izohli katta lug’at”)
14. 『日本文法辞典』 1981 nihon bunpou jiten (Yapon tili gramatika lug`at)
15. 『国語学大辞線』 1980 kokugo daijisen (Yapon tilini o`rganish katta lug`at)
16. 情報・知識 imidas 2007
17. Фельдман-Конрад, Г Хикита “Краткий японско-русский словарь” Москва 1980г.
18. Алпатов, Аркадьев, И. Подлесская «Теоретическая грамматика японского языка». 2008 .
19. Ichikawa Sukoku “Chyuukyu nihongo bunpou to oshiekata” 2010.
20. Лаврентьев. «Практическая грамматика японского языка» .2002.

Foydalanilgan internet saytlari

21. <http://www.geocities.jp/tomomi965/index2.html>
22. <http://ja.wikipedia.org/wiki/>
23. <http://mediawiki.arts.kuleuven.be/japans/index.php/>
24. http://contest2005.thinkquest.jp/tqj2005/80019/w_kannyouku1.html
25. <http://ci.nii.ac.jp/naid/110006609495>
26. <http://www.h3.dion.ne.jp/~urutora/kanyoupeji.htm>
27. <http://www.tulips.tsukuba.ac.jp/dspace/bitstream/2241/2485/1/A2749.pdf>
[f](#)
28. <http://www.tsu.ac.jp/bulletin/bulletin/pdf/15/087-101.pdf>
29. <http://japanese.stackexchange.com/questions/118/>
30. http://en.wikipedia.org/wiki/List_of_gairaigo_and_wasei-eigo_terms

ILOVA

Ushbu bitiruv malakaviy ishida quyidagi ilova yapon tilida o`zlashma leksema bilan yasalgan idiomatik birliklarning yapon tili kundalik hayotdagi suhbatlarda keng qo`llaniladigan iboralarning jadvali “Yapon tilini o`zlashtirish imtihoni(JLPT)” standartlariga asosan tuzilgan.

№	Yapon tilidagi o`zlashma leksemaga oid idiomatik birlik	Yapon tilidagi o`zlashma leksemaga oid idiomatik birlikning o`qilishi	Yapon tilidagi o`zlashma leksemaga oid idiomatik birlikning o`zbekcha tarjimai
1.	エンジンがかかる	Enji ga kakaru	<i>Ishtiyoq uyg`onmoq</i>
2.	ストップがかかる	Sutoppu ga kakaru	<i>Kuch ishlatib to`xtatmoq</i>
3.	パンチが効く	Panchi ga kiku	<i>Suhbatdoshiga kuchli hissiy ta`sir o`tkazmoq</i>
4.	バックが付く	Bakku ga tsuku	<i>Ortida tayansa bo`ladigan insonning bo`lishi</i>
5.	ハードルが高い	Hadoru ga takai	<i>Juda qiyin</i>
6.	レパートリーが広い	Repatori ga hiroi	<i>O`z yo`nalishi bo`yicha chuqur bilimga ega</i>
7.	ロスが大きい	Rosu ga ooi	<i>Zarar ko`p bo`lmoq</i>

8.	ピントがずれる	Pinto ga zureru	<i>Muhim narsani unutmoq</i>
9.	プレッシャーがかかる	Pureshsha ga kakaru	<i>O`zgadan bosim bo`lmoq</i>
10.	ピリオドを打つ	Piriodo wo utsu	<i>Tugatmoq</i>
11.	アンテナを張る	Antena wo haru	<i>Ma`lumot yig`ish uchun zarur ishlarni qilmoq</i>
12.	レッテルをはる	Retteru wo haru	<i>Harakter va qobiliyat haqida odatda yomon baho bermoq</i>
13.	メスを入れる	Mesu wo ireru	<i>Biror muommoni yechimi uchun aniq chora-tadbirlar ko`moq</i>
14.	ブレーキをかける	Bureki wo fumu	<i>Boshqa oldinga silja olmaslik</i>
15.	ステップを踏む	Suteppu wo fumu	<i>Biror ishni o`z navbati bilan qilmoq</i>
16.	レールを敷く	Reru wo shiku	<i>Muvafaqiyatli bo`lish uchun tayyorgarlik ko`rmoq</i>
17.	ピッチを上げる	Pichchi wo ageru	<i>Tezlikni oshirmoq</i>
18.	ラストスパートをかける	Rasutosuoato wo kakeru	<i>Ohirgi lahzalarda bor kuchini jamlagan holda</i>

			<i>nimadir bajarishi</i>
19.	スポットライトをかける	Supottoraito wo kakeru	<i>Barchaning e`tiborini qozonmoq</i>
20.	ベストを尽くす		<i>Qo`ldan kelgan barcha ishni qilmoq</i>
21.	トーンが落ちる	Ton ga ochiru	<i>Fikrning kuchsiz aytilishi</i>
22.	ガードが甘い	Gado ga amai	<i>Barchani o`z yaqini deb ko`rish</i>
23.	パイプ通す	Paipu wo toosu	<i>Ikki fikr mujassamlashtirish</i>
24.	ノルマを果たす	Noruma wo hatasu	<i>Rejani bajarmoq</i>
25.	オブラートに包む	Oburato tsutsumu	<i>Kuchli havotirga tushmasligi uchun ehtiyotkorlik bilan gapirmoq</i>
26.	ピンチに陥る	Pinchi ni ochiiru	<i>Havfli ahvolda qolmoq</i>
27.	モルモットにする	Morumotto ni suru	<i>Tajriba obyektiga aylantirmoq</i>
28.	ジレンマに陥る	Jirenma ni ochiiru	<i>Qaysi tomonni bilmay qiyin ahvolga tushmoq</i>
29.	ユーモアに富む	Yumoa ni tomu	<i>Hazilga boy bo`lmoq</i>

30.	ワンクッション置く	Wankushshon wo oku	<i>Shok holatini yumshatish maqsadida arqonni uzuntashlamoq</i>
31.	ピンからキリまで	Pin kara kiri made	<i>Eng yaxshi narsadan to yomonigacha</i>
32.	バトンタッチする	Batontachchi suru	<i>O`zidan keyingi avlodga ishini qoldirmoq</i>

Yapon tilida o`zlashma leksema bilan yasalgan tarixiy yoki eskirgan idiomalar ro`yhati

№	Yapon tilidagi o`zlashma leksemaga oid idiomatik birlik	Yapon tilidagi o`zlashma leksemaga oid idiomatik birlikning o`qilishi
1.	アクセントを置く	Akusento wo oku
2.	アドバルーンを揚げる	Adobaru wi ageru
3.	キャスティング・ボートを握る	Kyasuchingu bodo wo nigiru
4.	鉄のカーテン	Tetsu no katen
5.	サンドイッチになる	Sandoichchi ni naru
6.	メートルを上げる	Metoru wo ageru

7.	モーションをかける	Moshon wo kakeru
8.	ミイラ取りがミイラになる	Miiratori ga miira ni naru
9.	ベールを脱ぐ	Beru wo nugu
10.	ポイントを稼ぐ	Pointo wo kasegu
11.	イニシアチブをとる	Inishiachibu wo toru
12.	プラスアルファ	Purasu arufaa
13.	マスコミに乗る	Masukomi ni noru
14.	ベンチを暖める	Benchi wo atatameru
15.	ピンをはねる	Pin wo hameru